

ALISHER NAVOIY IJODINI O'QUVCHILARGA NOAN'ANAVIY USULLARDA O'RGATISH

Bahodirova Saodatxon Ikromjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
o'zbek tili yo'nalishi 22.90 - guruh talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqola Alisher Navoiy ijodini o'quvchilarga noan'anaviy metodlar orqali o'rgatish masalasiga bag'ishlangan. Unda adabiyot darsliklaridagi Navoiy asarlarini, ruboiylarini noan'anaviy usullarda o'rgatish yaxshi samara berishi haqidagi g'oya ilgari suriladi va adabiyot darsliklaridagi asarlar orqali isbotlanadi.*

Kalit so'zlar: *noan'anaviylik, metod, ruboiy, lug'at so'zlar, intellektual o'yinlar.*

Alisher Navoiy faqat o'zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxs.

Navoiy ijodini o'rganish, undagi ma'no nozikliklarini anglash, so'zlar latofatini his qilish uchun shoir asarlarini chuqurroq mutolaa qilish talab etiladi. Bugungi kunda amaldagi adabiyot darsliklarida Navoir dahosining sara asarlaridan namuna berilgan. Har bir sinf uchun tavsiya etilgan asarlar o'quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib tanlangan.

Bundan so'zlangan maqsad o'quvchi ulg'aygani sari Navoiy ijodini anglab borishi, unda ifoda etilgan fikrlarni tahlil qilishi va o'z hayotiga tatbiq eta olishi lozim.

8-9-10-11 sinflar darsliklaridagi Navoiy ijodining ko'plab asarlari tahlili berilga. Agar bu asarlarni o'rganishda o'quvchilarga noan'anaviy usullardan foydalanilsa, o'quvchining o'rganishi, mavzuga qiziqishi ortadi. Shoir ijodining 5-6 sinflarda, asosan, turli qiziqarli metodlar orqali o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, 6 - sinf adabiyot darsligining 68 - sahifasida Alisher Navoiyning ruboiylari berilgan. Mazkur mavzuni o'rgatishda o'quvchilarga oddiygina hikoya usulidan emas, balki turli qiziqarli usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Agar 11 - 12 yoshli bola bu mavzuni guruhlarda ishlash orqali yoki o'zi o'yin usulida o'rgansa, ham qiziqarli bo'ladi, ham yodida saqlanadi.

Mazkur jarayonda quyidagi metodlardan foydalanishni tavsiya etaman.

" So'z gavharini topish "metodi

O'quvchilar 2 guruhga bo'linadi.

1 - guruh ruboiylardan tanlab olingan lug'at so'zlarni stikerlarga yozib, katta hajmli oq qog'ozga yoki doskaga yopishtiradi,

2 - guruh esa ularning ma'nolarini topadilar. Bu metodda o'quvchilar guruhda ishlashadi, olgan bilimlarini ifoda etishadi.

" Sehri sandiq " metodi

Bu metodda o'qituvchi darsliklarda berilgan ruboiylarni 4 formatga yozib, guruhlarga taqdim etadi.

1 - topshiriq : Ruboiyda qanday g'oya ilgari surilganini topishadi.

2 - topshiriq : Ruboiydan asosiy g'oyani ifodalaydigan kalit so'zlarni topishi lozim bo'ladi.

Bu metod orqali ham o'quvchilarning guruh bilan ishlash faoliyati rivojlanadi, ular bahslashishadi, o'zaro fikrlar zidligi yuzaga keladi, Natijada guruh eng maqbulini tanlaydi, qog'ozga yozadi. To'g'ri javobni olgan guruh g'olib hisoblanadi.

" Ummonga sho'ng'ish " metodi

Bu metod o'tilgan mavzuni mustahkamlashda yaxshi natija beradi.

O'qituvchi darslikda berilgan ma'lumotlarni o'qib yodlashni uyga topshiriq qilib beradi. Kelasi darsda bu metoddan foydalanadi. Navoiy davrida ishlatilgan so'zlar, qo'shimchalarni stikerga yozib doskaga joylaydi. O'quvchilar esa hozirgi o'zbek tilidagi shaklini topib yozadi. Eng ko'p javob topa olgan o'quvchi ummonga eng sho'ng'igan o'quvchi hisoblanadi. Bunda har bir o'quvchi o'zi harakat qiladi, o'qib javobini yozishga intiladi.

" Zakovat - intellektual o'yini " metodi

10 - 11 - sinf o'quvchilari uchun esa adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodi va asarlari xususida qisqa " Zakovat " intellektual o'yinini tashkil etish ham anchagina foydali metodlardan biri sanaladi.

Bunda o'qituvchi savollarni o'zi tuzadi hamda dars jarayonida o'quvchilarga taqdim etadi.

1. 5 - sinf adabiyot darsligida keltirilgan " Zulmat ichra nur " qissasida ifodalangan voqeani Navoiy qaysi asarida keltirib o'tgan ?

Javob : " Majolis un - nafois " asarining 2 - majlisida.

2. Alisher Navoiy qaysi asarida xalqlar, elatlar o'rtasidagi ahillik haqida alohida to'xtalib o'tgan ?

Javob : " Saddi Iskandariy " asarida

3. Navoiy ijodiga mansub asarda tilga olingan qaysi narsa bugungi texnika asrining eng muhim kashfiyotlaridan biri sanaladi ?

Javob : Televizor

4. Alisher Navoiy " Xamsa " asarini yozmagan taqdirida ham qaysi asari bilan o'zbek adabiy tilining asoschisi bo'la olar edi ?

Javob : " Xazoyin ul - maoniy "

5. Alisher Navoiyning qaysi asari qahramoni qizlar uchun alohida maktab ochgani e'tirof etiladi ?

Javob: " Layli va Majnun " asari

Shoir ijodi bo'yicha shunday savollarni ko'plab tuzish mumkin. O'quvchilar savollarga javob berishda mantiqiy fikrlaydi, o'zida bor bilimlarni tahlil qiladi.

Shuni unutmash kerakki, mumtoz adabiyotga oid mavzular o'quvchilar uchun qiyin tuyuladi. Lekin mahoratli o'qituvchi esa uni oson usullar orqali yetkazib bera oladi.

" Zakovat " intellektual o'yinlari, guruhlar aro turli musobaqalar, yuqorida keltirilgan noan'anaviy metodlar orqali dars tashkillansa, o'quvchilar oson o'zlashtiradi.

Navoiy ijodini o'rgatishda turli rasmlardan, intellektual o'yinlardan hamda o'quvchi uchun qiziqarli metodlardan foydalanilgan holda dars mashg'ulotlari olib borilsa, yaxshi samara beradi.

Zero shuni unutmashimiz kerakki, ma'naviy boyligimiz hisoblangan Alisher Navoiy asarlarini chuqur o'rganish, anglash ham qarz, ham farz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **6 - sinf. Adabiyot darsligi. 2022 - yil.**
2. 10 - sinf adabiyot darsligi. I qism .
3. " To'liqin va tadqiqotlar " ilmiy - uslubiy jurnal. 2022 - yil.
4. " Gournal of New CENTRY Annovatsions " jurnali. 2022 - yil.
5. 11 - sinf adabiyot darsligi . I qism. 2022 - yil.

